



## ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDA KELTIRILGAN YUZTA FE‘LLARNING SEMANTIK TARAQQIYOTI

*Umarova Nargiza Rustamovna*

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent

*Mahmudova Nafosatxon Eminjon qizi*

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari va uning tadqiqi tog‘risida hamda ushbu asarda keltirilgan yuzta fe‘llarning semantic (ma‘no) taraqqiyoti haqida fikr yuritilib, yuqoridagi masala yuzasidan tilshunos olimlar va pedagoglarning ilmiy qarashlariga subyektiv munosabat bildirilgan.

*Kalit so‘z:* Til, tilshunoslik, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, fe‘l, semantika, ma‘no, yig‘lamoq, siqtamoq, ichmoq, tomshimoq, sipqormoq.

### KIRISH

Til inson tomonidan yaratilgan va unga yaratgan tomonidan hadya etilgan eng buyuk ne‘mat. Til bor ekan aloqa bor, tarix bor, madaniyat va ma‘naviyat bor. Mustaqillika erishganimizdan so‘ng barcha sohalar kabi tilshunoslikda ham bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Tilshunoslik izchil darajada rivojlandi.

Yosh avlodni ulug‘ mutafakkirlarimiz va ular yaratgan asarlarga bo‘lgan hurmat, mehr muhabbat ruhida tarbiyalash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biri desak aslo adashmagan bo‘lamiz. Alisher Navoiy ham o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham o‘z ona tiliga bo‘lgan cheksiz mehr muhabbatini va turk tilini boshqa tillardan aslo qolishmasligini ayrim o‘rinlarda esa fors tilidan ustun turishini misollar asosida isbotlab bergan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida keltirilgan yuzta fe‘llarning sinonimlarini berib o‘tgan va bu fe‘llarning fors tilida bitta so‘z bilangina ifodalanishini yozib o‘tadi. Ushbu fe‘llarning semantik jihatdan taraqqiyoti ishimizning obyekti hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini o‘rganilishi yuzasidan juda ko‘p tilshunos olimlarning fikr va mulohazalari mavjud bo‘lib biz hozirgi ishimizda ularning ba‘zilarini ishlaridan foydalanishni lozim deb topdik. Ular quidagilar A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.G‘ulomov, X.Doniyorov, B.Yoriyev va A.Xojiyevlar. Hususan Abdulhamid Nurmonov quidagi fikrlarni berib o‘tadi. Alisher Navoiy o‘z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go‘zalligi, tarovatini amalda ko‘rsatib berish bilangina cheklanib qolmadi. Ona tilini o‘sha davrda badiiy adabiyot uchun an‘ana bo‘lib qolgan fors tiliga qiyoslab bu tildan hech qolishmasligini, hatto ba‘zi o‘rinlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ha isbotlab bermoqni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Ana shu maqsadda 1499-yilda ikki til muhokamasiga-ikki tilning chog‘ishtirma grammatikasiga bag‘ishlanga maxsus asarni-“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini yaratdi.

Alisher Navoiyning bu asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog‘ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo‘nalishiga asos solindi. Chog‘ishtirma tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyati shundaki,



ikki tizimga mansub bo'lgan tillar tilning barcha sathlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Fe'l mavzusini leksik –semantik va grammatik tabiatini yoritish o'zbek tilshunosligi sohasida 1940-yillarga qadar maktab darsliklari doirasida yuzaki tUSDagi ma'lumotlar bilan chegaralanar edi. Bundan faqat professor E.D. Polivanovning ishlarigina istisno edi [1]. 40-yillardan boshlab maktab darsliklarida ham siljish, ilmiylikka asoslanish, sovet tilshunosligining, shu jumladan rus tilshunosligining, sovet turkologiyasining yutuqlariga suyanish boshlandi [2; 3]. Oliy maktablar uchun darsliklar yaratilishi [4; 5], ayniqsa o'zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasining maydonga kelishi [6; 7] fe'l temasining ham keng ilmiy planda ishlanishi bo'ldi, bu mavzuga oid monografik ishlarning yaratilishiga asos bo'ldi. Demak, fe'l kategoriyasining ishlanishiga E.D.Polivanov, A.N.Kononov, V.V.Reshetov kabi taniqli olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar [6; 7; 8]. Fe'l so'z turkumining rivojlanishida rus tilshunoslaridan A.M.Shcherbak, S.M.Ivanov, A.Koklyanov, o'zbek tilshunoslaridan A.G'ulomov, A.X.Sulaymonov, A.Hojiyev, J.Jo'rayev, SH.Shukurov, G.Sh.Sharipov, S.A.Akbarov, E.Fozilov, R.Jumaniyozov, M.Shohnazarova va boshqa olimlarning hissalarini kata [9, 10, 11].

Buyuk tilshunos olim Azim Xojiyev o'zining fe'l nomli monografiyasida fe'l yasaliishi, fe'lga xos grammatik kategoriyalar hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan bayon etiladi. Ishda fe'l monografiyasida eng murakkab, shu vaqtga qadar munozarali bo'lib kelgan hodisalarning mohiyatini ochishga alohida e'tibor bergan [12]. Ammo A.Xojiyev yuqoridagi monografiyasida fe'l so'z turkumining semantikasi haqida to'xtalib o'tmagan.

Fe'llarning semantik taraqqiyoti haqida gapirar ekanmiz semantika (semasiologiya) so'zi qanday ma'noni anglatishini ham aytib o'tmog'imiz darkor. Semasiologiya (yun. Semasia – ifodalash +logos-tushuncha, ta'limot). Lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha [13].

O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumini o'rganish Abdurauf Fitratga borib taqaladi. U o'zining "Sarf" nomli asarining fe'lga bag'ishlangan qismida fe'llar bo'lishli-bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik, shaxs –son, zamon, daraja (nisbat), mayl kabi kategoriyalarga egaligini takidlagan. Bu kategoriyalarning barchasiga alohida-alohida to'xtalib o'tgan [15]. Abdurauf Fitrat ham fe'llarning ma'no tomoni haqida o'z asarida fikr bildirmagan.

## **NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Alisher Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo'lgan leksika sohasidagi bilimlar bilan qurollangan. Ana shu bilimlar asosida turkiy tilning lug'at boyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenti bo'lmagan bir qancha so'zlarni topadi. Bular shunday so'zlarki, "barchasi muhtojun ilay durki (ehtiyojli), takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur. Ko'pi andoqdurki, aslo aning mazmunini tahfim qilmoq (ifodalamoq) bo'lmas va baziniki, anglatsa bo'lg'ay, har lafz tahfimi uchun (ifodasi uchun) necha lafzni (so'zni) tarkib qilmaguncha bo'lmas.

Ana shunday so'zlarga turkiy tildan yuzta fe'lni keltiradi: quvormoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o'ngdaymoq, chekirimak, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmak, torikmoq, aldamoq, arg'adamoq, ishanmak, iglanmak, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg'anmoq, nikamaq, saylanmoq, tanlamoq, qimirdamoq, serpmak, sirmamak, ganorgamak, sig'riqmoq, sig'inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevrarak, qing'aymoq, shig'aldamoq, singramoq, yashamoq, isqarmoq, ko'ngranmoq, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq,



mung‘aymoq, tanchiqamoq, quruqsamoq, bushurg‘anmoq, buxsamoq, kirkinmak, sukadamak, busmoq, burmak, turmak, tamshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o‘rtanmak, sizgurmoq, gurpashlamak, chiprutmak, jirg‘amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalitmak, kumurmak, bikirmak, ko‘ngo‘rdamak, kinarkamak, kezarmak, do‘ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qizg‘anmoq, qichig‘lamoq, gangiramak, yadamak, qadamoq, chiqanmoq, kundurmak, so‘ndurmak, suqlatmoq.

Keltirilgan bu fe‘llar Alisher Navoiy o‘zbek tilining imkoniyatlarini ko‘rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchkovlik bilan chuqur o‘rganganligini isbotlovchi dalillardir.

Biz ishimizni davomida asarda keltirilgan yuzta fe‘llarni Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida qanday ma‘noni anglatishi va O‘zbek tilining izohli lug‘atida qanday ma‘noni anglatishi haqida fikr yuritamiz.

### **1. Quvormoq.**

Quvor\_qurimoq, so‘limoq:

*Nevchunki, turk alfozi vozii asru ko‘p vaqtda mubolag‘a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz qilibdur...*

*Andoqki: quvormoq va quruqshamoq va usharmak...*

*Muhokamat ul-lug‘atayn XIV-108*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik IV tom Toshkent-1985 72-bet]

### **2. Quruqshamoq.**

Quruqsha\_quruqshamoq, qurushmoq, qovjiramoq:

*Nevchunki, turk alfozi vozii asru ko‘p vaqtda mubolag‘a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz qilibdur...*

*Andoqki: quvormoq va quruqshamoq va usharmak...*

*Muhokamat ul-lug‘atayn XIV-108*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik IV tom Toshkent-1985 82-bet]

### **3. Usharmoq**

*Ushar qisqartirmoq, parchalamoq, buzmoq; mansabini pasaytirmoq:*

*Nevchunki, turk alfozi vozi asru ko‘p vaqtda mubolag‘a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz qilibdurki, sohibvuquf kishi to zohir qilmas, inson ham bo‘lmas.*

*Andoqki: quruqshamoq va usharmak.*

*Muhokamat ul-lug‘atayn, XIV-108.*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik IV tom Toshkent-1985 303-bet]

### **4. Jiyjaymoq**

*Jijay-//Jiyjay\_qovjiramoq, qurushmoq:*

*Andoqki: quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jiyjaymoq...*

*Muhokamat ul-lug‘atayn, 7-8*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik I tom Toshkent-1985 575-bet]



## 5. O'ngdaymoq

*O'ngday\_yo'nalmoq:*

*Andoqki: quruqshamoq va usharmak va jijaymoq va o'ngdaymoq*

*Muhokamat ul-lug'atayn XIV-108*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik III tom Toshkent-1985 611-bet]

## 6. Chekrimak.

*Chekri\_oldinga surmoq:*

*Andoqki:quvormoq va quriqshamoq va usharmak va chekrimak...*

*Muhokamat ul-lug'atayn XIV-108*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik III tom Toshkent-1985 463-bet]

## 6. Usanmoq

*Usan-//Uson\_bezmoq, zerikmoq:*

*Er kishikim, ko'p yasang'ay, xirad ahli aning aqlidin usang'ay.*

*Mahbub ul-qulub,139-140;*

*Yor yuz pora qilib bordi hazing ko'nghumni,*

*Hech usanmay yana har lahza borur pora ko'ngul.*

*Xazoyin ul-maoniy,I b 397;*

*Bu fayz sog'arlaridin ichib qonmag'ay va bu zavq qadahlaridin lojur'a usanmag'ay.*

*Mahbub ul-qulub,69.*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik III tom Toshkent-1985 613-bet]

## 7. Igirmoq.

*Igir\_o'ramoq, aylantirmoq; yigirmoq, pishitmoq (ipni):*

*Igirdi rishtai nating Navoiy ko'z uchi birla, Agar boqsang, muti o'lg'ay anga nassoj ila sarroj.*

*Xazoyin ul-maoniy,IV b 97;*

*O'z iliki bila charx igirib ipin sotib...*

*Nasoyim ul muhabbat XV -116.*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik II tom Toshkent-1985 14-bet]

## 8. Uxranmak

*Uxran\_seskaanmoq:*

*Nevchunki turk alfozi vozi'iasru ko'p vaqtda mubolag'a izhori qilib, juzviy mavxumot uchun alfoz vaz qilibdur...*

*Andoqki: uxranmak va toriqmoq va aldamoq...*

*Muhokamat ul-lug'atayn XIV-108*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik III tom Toshkent-1985 618-bet]



### **9. Toriqmoq.**

*Toriq\_zerikmoq, siqilmoq:*

*Men qushedurmen chamandin chiqmag'an,*

*Dashtu vodiy sayriddin toriqmag'an.*

*Lison ut-tayr, 44-1;*

*Navoiy etsa fig'on, xo'blar toriqmangkim,*

*Ne qolg'usidir o'zi, ne fig'on zori aning.*

*Xazoyin ul- maoniy, III b-345.*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik III tom Toshkent-1985 246-bet]

### **10. Aldamoq.**

*Alda I\_hiyla makr:*

*Sen chu bulbul sarxush xilvatgaroy,*

*Alda qilib har ne tilab nafsu roy.*

*Hayrat ul-abror, 75-7*

*Alda II\_1.yolg'on so'zlamog; laqillatmoq, aldamoq:*

*Topakur oni, chu topsang, har qayon ozim esa,*

*Boshig'a evrul quyundek, dag'I aldab qaytaru.*

*Xazoyin ul-maoniy, IV b-513*

*2.Yupatmoq, tasalli bermoq:*

*Mahzun ko'ngluni aldab, dilrabosining kelur xabarini debtor.*

*Majolis un-nafois, 247;*

*Qo'yingiz bir nafase, jonima bedod aylay,*

*Tifl yo telba kibi man etibon aldamangiz.*

*Xazoyin ul-maoniy, IV a-117;*

[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik I tom Toshkent-1985 78-bet]

### **11. Arg'adamoq.**

*Arg'ada\_aldamoq, hiyla makr bialn yengmoq, firib bermoq:*

*Man bedil sanga jon o'ynamoq birla yaraydurmen,*

*Bale sen tiflni bu tuhfa birla arg'adaydurmen.*

*Xazoyin ul-maoniy Ib-470.*

*Nevchunki, turk alfozi vozei asru ko'p vaqtda mubolag'a izhori qilib, juzviy mavhumot uchun alfoz vaz qilibdurki, sohib vuquf kishi to zohir qilmasa, inonsa ham bo'lmas. Andoqki...arg'adamoq va ishanmak va iglanmak...*

*Muhokamat ul-lug'atayn, 7.*



[Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik I tom Toshkent-1985 120-bet]

Yuqorida keltirib o‘tilgan misollardan ayonki turkiy til o‘sha davrda yuqori cho‘qillarda turgan sort (fors) tilidan fonetik, leksik va semantic jihatdan aslo qolishmasligini ayrim o‘rinlarda ulardan ustun ham turishini ko‘rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘zi keltirgan yuzta so‘zni har biri o‘zbek tilida o‘z sinonimlariga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Masalan, biror bir suyuqlikni ichish harakatini ko‘rsatuvchi ichmoq fe’li bor. Navoiy bu fe’lni sipqormoq, tomshimoq kabi sinonimlaridan ham foydalangan:

*Soqiyο tut bodakim, bir lahza o‘zimdin boray,*

*Shart bulkim, har necha tutsang labo-lab sipqoray.*

*Soqiy, chu ichib, menga tutar qush,*

*Tomshiy-tomshiy uni qilay no‘sh.*

Navoiy asarlarida *yig‘lamoq so‘zini yig‘lamsinmoq, bo‘xsamoq, ingramoq, singramoq, siqtqmoq, o‘kirmak, inichkirmak, hoy-hoy yig‘lamoq* kabi sinonimlarini samarali qo‘llagan.

Istasam dabir gulidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar goh ingramakdur odatim, goh sigramak.

Ul oyki, kula-kula hirog‘latti meni,

Yig‘latti meni demang siqtatti meni

Navoiy yuqoridagi misollarni keltirar ekan, ulardagi sinonimlarning poetic ustunligini, stilistik bo‘yoqdorliginiva poeziyada ro‘lini ko‘rsatdi. Bu bilan tildagi sinonimlarning o‘rnini yaxshi tushunib yetganligini isbotlab berdi.

## **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki Alisher Navoiy o‘z ona tilining tom ma’nodagi himoyachisi deb atashimiz joiz bo‘ladi. A.Navoiyning turkiy vas sort tillarining leksik-morfologik, fonetik imkoniyatlari xususidagi fikrlarni muqoyasa qilib shuni aytish zarurki, shoir shu o‘rinda ham o‘z ona tilining fidoiysi va jonkuyar tilshunosi sifatida ona tilimizning imkoniyatlari: so‘z boyligi, morfologik vositalarning ko‘pligi, fonetik uslubiy bo‘yoqdorligini namoyish etdi.

Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn “asarini ona tilisiga bo‘lgan yuksak muhabbati va hurmati yuzasidan juda mukammal qilib yaratdi. Bu mukammal asar yosh avlodni tilga xurmaat, muhabbat ruhida tarbiyalay olishi bilan barcha asarlardan ustun turadi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка, глагол, Ташкент-Москва 1926
2. Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка. Узбекско-русский словарь, Москва, 1959
3. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка, М-Л., 1960
4. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка, Ташкент, 1961.
5. Шербак А.М. Грамматика староузбекского языка, М., 1962;



6. Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка, Л., 1959,
7. Коклянова А.А. Категория времени в современном узбекском языке, М., 1963
8. А.Хojiyev Fe‘l Toshkent 1973
9. Ne‘mat Mahkamov, Ixtiyor Ergmatov Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati Toshkent - 2013
10. Фитрат. Сарф. Самарканд-Тошкент 1930
11. Umarova, N. R. (2021). A linguistic approach to conceptual research. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 62-66.
12. Rustamovna, U. N., & Alisherovna, A. N. (2021). Mention of plant names in the poems of Alisher Navoi. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(06), 371-375.
13. Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARTISTIC ANTHROPONYMS IN THE POEMS OF ALISHER NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (5), 419-421.
14. Умарова, Н., & Абдувалиева, Н. (2020). Алишер Навоий ғазаларида мақол ва ибораларнинг маъновий хусусиятлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 105-111.
15. Umarova, N. R. (2020). The concept" word" in navoi's works. *FarDU. Ilmiy xabarlar*, (4), 127.
16. Umarova, N. R. Shohsanam Yigitaliyeva Isog‘ali qizi.(2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE. Учредители Теоретическая и прикладная наука* (9), 701-704.
17. Rustamovna, U. N., & Shohsanam, Y. (2022). The realization of the concept of goodness in English and uzbek proverbs. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 148-152.
18. Umarova, N. R., & Kholmatova, O. U. (2021). Proverbs and their morphological system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 792-797.
19. Umarova, N. R., & Abduvalieva, N. (2020). Alisher Navoiy G ‘azallarida ziddiyatning ifodalanishi.“. *So ‘z san‘ati” xalqaro jurnali*, 248-255.
20. Umarova, N. (2020, December). COGNITIVE INTERPRETATION OF RED AND YELLOW COLORS. In *Конференции*.
21. Rustamovna, U. N., & Qizi, M. K. A. (2020). O ‘xshatish konstruksiyalarining o ‘ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, (III), 347-351.
22. Fattohov, K. K., & Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARABICISM IN THE WORKS OF NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (4), 426-428.
23. Umarova, N. R. (2020). The interpretations of the nation “CONSEPT”. *ERPA international journal of multidisciplinary research (IJMR)*, 6, 437-439.
24. Zokirov, M., & Isomiddinov, F. (2020, December). About the holes of language language dictionary. In *Конференции*.
25. Turdaliyevich, Z. M. (2022). To the Question of the Study of Arabisms in the Persian Language. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 566-570.



26. Turdaliyevich, Z. M. (2022). About Grammatical or Morph syntactic Interference. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 768-773.
27. Ismoil, H., Mukhtorali, Z., Jumaboy, J., & Parviz, A. (2022). WORD FORMATION FROM THE TAJIK BORROWINGS. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 71-76.
28. Turdaliyevich, Z. M. (2022). Analysis of Phraseological Units in Tohir Malik's Novel "Talvasa". *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 364-368.
29. Zokirov, M. T., & Dadabayeva, S. S. (2020). ABOUT THE ROLE OF LANGUAGES CONTACTS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 687-691.
30. Зокиров, М. Т. (2017). ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРИХ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-2), 45-49.
31. Зокиров, М. Т. (2015). Об общей характеристике билингвизма. *Учёный XXI века*, (7-8 (8-9)), 24-27.
32. Turdaliyevich, Z. M. (2022). YOZUVNING KELIB CHIQISH TARIXI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 56-62.
33. Turdaliyevich, Z. M., & Muzaffar, M. (2022). INGLIZ TILIDAGI REKLAMA MATNLARIDA ANTROPONIMLAR QO 'LLANISHI XUSUSIDA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(8), 121-124.
34. Turdaliyevich, Z. M. (2022). BADIY NUTQ USLUBINING TARAQQIYOTI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 681-685.
35. Turdaliyevich, Z. M. (2022). BADIY NUTQ USLUBINING TARAQQIYOTI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 681-685.